

SURUNKALI NAFAS YO‘LLARI KASALLIKLARI BILAN OG‘RIGAN BOLALARDA YURAK-QON TOMIR TIZIMI FUNKSIONAL ZAXIRALARINING BAHOLANISHI

**Atabayev Atabek Farxodovich
Xolboyeva Maftuna Jasurbek qizi**

Dolzarbli. Bolalar orasida surunkali nafas yo‘llari kasalliklari keng tarqalgan bo‘lib, ularning uchrash chastotasi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu patologiyalar nafaqat nafas olish tizimini, balki yurak-qon tomir tizimining faoliyatini ham bevosita izdan chiqaradi. Bolalik davridagi yurak-qon tomir tizimi organizmning o‘rish va rivojlanishiga moslashishda muhim rol o‘ynaydi. Surunkali bronxopulmonar kasalliklar fonida yurak va qon aylanish tizimi funksional zaxiralari pasayishi, adaptiv imkoniyatlarning chegaralanishi va keyinchalik yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfini oshirishi mumkin.

Yurak-qon tomir tizimi funksional zaxiralarini erta bosqichda baholash nafaqat kasallik oqibatlarini kamaytirish, balki individual reabilitatsion dasturlarni ishlab chiqish va sog‘lomlashtirish choralari samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar pediatriya, pulmonologiya va kardiologiya amaliyotida katta ahamiyat kasb etadi.

Maqsad. Surunkali nafas yo‘llari kasalliklari bilan og‘rigan bolalarda yurak-qon tomir tizimi funksional imkoniyatlarini baholash va adaptiv mexanizmlardagi o‘zgarishlarni aniqlash.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotga 7–14 yosh oralig‘idagi 86 nafar bola jalb qilindi. Ularning 56 nafari qaytalanuvchi bronxit va bronxial astma yengil shakli bilan og‘rigan, 30 nafari sog‘lom nazorat guruhini tashkil etdi. Yurak-qon tomir tizimi funksional zaxiralari elektrokardiografiya (EKG), ortostatik sinama va veloergometriya yordamida baholandi. Natijalar statistik tahlili Student t-testi va χ^2 usullari bilan amalga oshirildi.

Natijalar. Qaytalanuvchi bronxit va bronxial astma yengil shakli bilan og‘rigan bolalarda yurak-qon tomir tizimining funksional ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ishonchli farq qildi ($p < 0,05$). Veloergometriya sinamalarida yurak urish tezligi va arterial bosimning normal ko‘rsatkichlarga qaytish vaqti sezilarli darajada cho‘zildi. Elektrokardiografiyada esa intervalining uzayishi – bu bo‘lmachadan qorinchalarga elektr impulsining sekinlashganini ko‘rsatadi, hamda segmentining pastlashishi – bu miokardning gipoksiya yoki ishemiyaga moyilligidan dalolat beruvchi o‘zgarishlar kuzatildi. Ushbu natijalar yurak-qon tomir tizimi funksional zaxiralari pasayganini va adaptiv imkoniyatlar cheklanganini ko‘rsatdi.

Xulosa. Surunkali nafas yo‘llari kasalliklari bilan og‘rigan bolalarda yurak-qon tomir tizimining funksional zaxiralari kamaygan bo‘lib, adaptiv mexanizmlarda buzilish kuzatiladi. Ushbu o‘zgarishlarni erta aniqlash kasallik oqibatlarini yumshatish, individual profilaktik va reabilitatsion dasturlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Kuipers, I. M., Sinderby, C. A., van Dijk, J. P., & Verhulst, F. C. (2020). Analysis of heart rate variability in children during high flow nasal cannula therapy. *Physiological Reports*, 8(10), e14429. <https://doi.org/10.14814/phy2.14429>
2. Gehring, U., Wijga, A. H., Hoek, G., Bellander, T., Berdel, D., Brüske, I., ... & Brunekreef, B. (2010). Exposure to traffic-related air pollution and acute bronchitis in children: Season and age as modifiers. *Journal of Epidemiology & Community Health*, 64(6), 543–549. <https://doi.org/10.1136/jech.2009.088617>
3. Lykov, Y. V., & Popovych, I. I. (2023). The risk factors of cardiovascular disorders in children with chronic bronchopulmonary diseases. *Zaporozhye Medical Journal*, 25(5), 663–668. <https://doi.org/10.14739/2310-1210.2023.5.125170>